

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

I.R.Asqarov, M.M.Mo'minov, U.Sh.Xusanov

Gulxayri(*Althaea officinalis* L.) o'simligini kimyoviy tarkibi, gulxayri moyini elementlar analizi va uning xalq tabobatidagi axamyati..... 117

BIOLOGIYA**Sh.X.Yusupova, I.I.Zokirov**

No'xat agrotsenozi zararli entomofaunasining ekologo-faunistik tahlili (Shimoliy Farg'ona misolida) 124

K.Zokirov, A.K.Xusanov, O.T.Sobirov, M.F.Xafizddinov, D.A.Saidjaxonova, S.T.Tillayeva, A.A.Kozimov

Sharqiy Farg'ona sharoitida terak qabariq qalqondori (*Diaspidiotus slavonicus* (green, 1934)ning biologik va zoogeografik xususiyatlariga oid..... 132

Z.J.Isomiddinov, D.A.Mirzaliyeva

Xushbo'y shivit (*Anethum graveolens* L.) o'simligining biokimyoviy xossalari 140

F.I.Xalmetova, X.S.Axmedov, S.N.Buranova, A.N.Botirbekov

Reaktiv artritning genetik jihatlari 143

M.R.Shermatov

Farg'ona vodiysi agroekotizimlari tangachaqanotli hasharotlarining (insecta: Lepidoptera) zoogeografik tahlili 147

K.Z.Yakhyayeva, F.F.Xoltayeva, K.K.Aliyeva

Chaqaloqlarda buyrak patologiyasi sabalari 154

M.A.Raximov

Mollarni go'shtga boqishda genetik imkoniyatlaridan samarali foydalanish 158

M.X.Mirraximova, N.Y.Nishonboeva

Genining polimorfizmi atopik dermatitda 162

G.M.Zokirova

Farg'ona vodiysi sharoitida *Cinara tujaefilina* (Del Guercio, 1909) shirasining (Homoptera, Lachnidae) biologiyasi 166

E.A.Botirov

Janubiy Farg'onaning Agrotis avlodi tunlam kapalaklari faunasi va ekologik xususiyatlari..... 170

G.M.Duschanova, N.A.Sobirova, D.A.Abdullayev

Toshkent botanika bog'i sharoitida *Eremurus lactiflorus* O. Fedtsch. (Xanthorrhoeaceae) o'simligi bargining strukturaviy xususiyatlari 176

F.M.Abdualiyeva, Sh.S.Xushmatov

Andijon shahrida joylashgan №1-son maktab o'quvchilarining (1-11 sinf) anfimova testi asosida intellektual rivojlanish darajasi tahlili..... 182

GEOGRAFIYA**Y.I.Ahmadaliyev, X.A.Abdualiyev**

Aholining hududiy taqsimlanishini tahlil qilishida zamonaviy iqtisodiy-geografik tadqiqotlarning zarurati 187

ILMIY AXBOROT**G.M.Mansurov**

Nemis tili darslarida til o'yinlari yordamida suhbatlashish qobiliyatlarini rivojlantirishni o'rganish..... 192

N.A.Sharopova

Qashqadaryo viloyati umumta'lim muassasalari moddiy-texnika bazasini mustahkamlash tadbirlari va ularning natijasi 196

O.A.Maniyozov, A.A.Bozorqulov, O.S.Isomiddinova

Ta'lim jarayonida birinchi tartibli chiziqli oddiy differensial tenglamalarni yechimini maple dasturida topish 199

D.O'.Qarshiyeva

Ona tili va adabiyot o'qituvchilarining kvest texnologiyasi asosida darslarni tashkil etish kompetentligini rivojlantirish 203

G.B.Nafasova, B.S.Abdullayeva

Bo'lajak fizika o'qituvchilarining ilmiy-mantiqiy dunyoqarashini shakllantirish 208

KOMBINATOR LEKSIKOGRAFIYA – TILSHUNOSLIKNING NAZARIY VA AMALIY ASOSI**КОМБИНАТОРНАЯ ЛЕКСИКОГРАФИЯ – ТЕОРИЧЕСКАЯ И ПРАКТИЧЕСКАЯ ОСНОВА ЯЗЫКОЗНАНИЯ****COMBINATOR LEXICOGRAPHY – THEORETICAL AND PRACTICAL BASIS OF LINGUISTICS****Yunusova Bahora Axtamjonovna¹****¹Yunusova Bahora Axtamjonovna**

– Samarqand davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada elektron (tezausus), kombinator lug'atlar yaratish, sohalarga oid ma'lumotlarni avtomatlashtirish bugungi kunda muhim vazifalardan biri ekanligi, elektron tarjimon, sintagmatika, til birliklarining kombinatsiyasi haqida so'z yuritilgan va tahlil qilingan.

Аннотация

В статье рассматривается и анализируется тот факт, что создание электронных (тезаурусов), комбинаторных словарей, автоматизация информации по полям является одной из важных задач на сегодняшний день, электронный переводчик, синтагматика, сочетание языковых единиц.

Abstract

The article discusses and analyzes the fact that the creation of electronic (thesaurus), combinatory dictionaries, automation of information related to fields is one of the important tasks today, electronic translator, syntagmatics, combination of language units.

Kalit so'zlar: sintagmatik aloqa, sun'iy intellekt, izohli kombinator lug'at, semantik tasavvur, antrotsentrik yondashuv, "mazmun-matn" modeli, lingvokognitiv, paradigmatic birlik.

Ключевые слова: синтагматическая коммуникация, искусственный интеллект, объяснительная комбинаторная лексика, семантическое воображение, антропоцентрический подход, модель «содержание-текст», лингвокогнитивная, парадигмальная единица.

Key words: syntagmatic communication, artificial intelligence, explanatory combinatorial vocabulary, semantic imagination, antropocentric approach, "content-text" model, linguocognitive, paradigmatic unit.

KIRISH

XX asrning birinchi yarmida xorijiy tillarni o'qitishning amaliy ehtiyojlari ta'sirida matnlarni tahliliga bag'ishlangan faol lug'atlar yuzaga kela boshladi. Bunday lug'atning vazifasi foydalanuvchiga iloji boricha istalgan fikrni ifoda etadigan til vositalarining to'liq to'plamini berishdir. Tilning rivojlanish jarayonida uning lug'at tarkibi (leksikasi) boshqa sohalariga qaraganda tez, jiddiy o'zgarishlarga uchraydi. Buning sabablari ma'lum, albatta. Bu o'zgarishlar leksikaning faqat miqdor jihatdan emas, balki sifat jihatdan ham rivojlanishini aks ettiradi. Leksikadagi taraqqiyot, o'zgarishlar yangi lug'aviy birliklarning paydo bo'lishi va ma'lum lug'aviy birliklarning yo'q bo'lishi (iste'moldan chiqishi), so'zlarning yangi ma'nolar kasb etishi va ayrim ma'nolarining yo'qolishi kabi hodisalardan iborat bo'ladi. Bu jarayonda lug'aviy birliklarning adabiy me'yorga bo'lgan munosabatida, qo'llanishi va boshqa xususiyatlarida turlicha o'zgarishlar yuz beradi. Ana shunday o'zgarishlar ma'lum darajaga kelganida, ularni nazariy va amaliy jihatdan aks ettiruvchi tadqiqotlarga ehtiyoj tug'iladi. Amaliy ishlarining asosiylaridan biri esa izohli, tarixiy, etimologik va kombinator lug'atlar tuzish hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Prezidentimizning nutqlarida "O'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlari, shevalari, tarixiy taraqqiyoti, uning istiqboli bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlar samarasini oshirish, kadrlar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilashga erishmog'imiz zarur. Bu ishlar uchun moliyaviy resurslar va mablag'larni aslo ayamashimiz kerak. ... ona tilimizni jozibali va qiziqarli tarzda taqdim etish, buning uchun o'zbek tilining kompyuter dasturlarini, onlayn darsliklar, elektron lug'atlarni yaratish kerak [Mirziyoev 2019:2]", degan dolzarb ijtimoiy vazifaning qo'yilishi, qolaversa, turli tipdagi kompyuter dasturlarni yaratish talabi kombinator lug'atiga bo'lgan ehtiyojni yanada oshirmoqda. Bu esa o'zbek tilshunosligi fani oldiga jahon leksikografiyasi an'analariga asoslangan holda o'zbek

ILMIY AXBOROT

kombinator lug'atchiligi nazariyasini shakllantirish, uning ilmiy – lingvistik, sotsiolingvistik, lingvokognitiv asoslarini ishlab chiqish, kombinator lug'atlarini yaratish tamoyillarini aniqlashtirish, bugungi zamonaviy lingvistik va metodik talablarga javob beradigan kombinator lug'atlarini yaratish talablarini qo'yimoqda.

Xususan, hozirda o'zbek tilshunosligida keng qamrovda olib borilayotgan sistem-struktur tadqiqotlar natijasida kombinator lug'atlar yaratish uchun zamin paydo bo'ldi. Afsuski, bu borada o'zbek tilshunosligida hali sanoqli ishlargina amalga oshirilgan. Bu tadqiqotlarning fan taraqqiyotidagi hozirgi darajasi lisoniy hodisalarning nazariy, amaliy muammolarini turli usul va vositalar yordamida tadqiq etish talabidan kelib chiqib amalga oshirilganligini ta'kidlash joiz. Shu tarzda o'zbek tilshunosligida keng qamrovli sistem-struktur tadqiqotlar yuzaga kela boshladi va buning natijasida turli tip lug'atlar, kompyuter dasturlarning lingvistik ta'minot yaratish uchun zamin paydo bo'ldi, tilshunoslar zimmasiga bir qator vazifalar yukladi:

1. Ishlab chiqarishning barcha sohalarida avtomatlashtirilgan boshqarish tizimi joriy etilgan. Mamlakatimizning barqaror iqtisodiy, ijtimoiy rivojlanishida fan va texnikaning, innovatsion texnologiyalarning ahamiyati tobora ortib borayotganligi buning dalilidir.

2. Ilmiy texnika inqilobi tabiat, jamiyat va insoniyat faoliyatining hamma sohalarida namoyon bo'lmoqda. Jahon fani taraqqiyotida bir-biridan birmuncha uzoq bo'lgan fan sohalar – tilshunoslik, falsafa va kibernetika kesishib, yangicha ontologik qarashlarni yuzaga keltirmoqda. Ilm-fanning rivojlanishi va barcha sohalarining kompyuterlashuvi natijasida o'zbek tili birliklariga avtomatik ishlov berish, tarjima qilish dasturlari uchun so'zlarning birikish kombinatsiyasini aniqlash zaruriyati paydo bo'lmoqda.

3. Hozirgi zamonda ilm-fan, texnikaning jadal sur'atlar bilan rivojlanishi, «Davlat tili haqida»gi Qonunning amaliyotga joriy etilishi, respublikamizda jahon infrastrukturasidagi bir qancha sohalarining rivojlantirilishi natijasida tilimizda yangicha atamalar, leksemalar paydo bo'lmoqda. Bu esa tilshunoslar oldiga barcha sohalar bo'yicha zamonaviy lug'atlar: chastotali, ters, elektron (tezaus), kombinator lug'atlar yaratish, sohalarga oid ma'lumotlarni avtomatlashtirish, ularni kompyuter xotirasiga joylab, qayta ishlov berishdek muhim vazifalarni yuklamoqda.

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimi korporativ informatsion tizimini takomillashtirish va uni axborotlar bilan doimiy ta'minlanishini tashkil etish to'g'risida»gi 2004-yil 3-noyabrdagi 258-sonli qarori elektron ta'lim tizimini yo'lga qo'yish uchun katta istiqbol ochmoqda. Ana shu talablardan kelib chiqqan holda elektron darslik, qo'llanmalar yaratish zarurati paydo bo'lmoqda.

5. Hozirgi davrda inson muammosi, uning aqliy faoliyati, tili, individual va jamoa faoliyati, aniq bir til tashuvchisi sifatidagi o'rni kabi antroposentrik muammolarni o'rganishga qiziqish ortib bormoqda.

Mazkur vazifalar kombinator lingvistikaning rivojiga turtki beradi. "Sun'iy intellekt" tadqiqot yo'nalishining bir qismi hisoblangan kombinator lingvistika, sun'iy intellekt va intellektual tizimning maxsus atamalari XX asrning 60-yillaridan boshlab shakllana boshladi. XX asr o'rtalariga kelib fan-texnikaning rivoji tilshunoslikda turli yo'nalishlarni yuzaga kelishiga sabab bo'ldi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Hozirgi paytda kombinator tilshunoslik til birliklari va ularning kombinatsiyalari sintagmatik aloqalarini o'rganadigan yo'nalish sifatida "elektron - tarjimon" sohasiga oid bir qator yangi muammolarni o'rta qatag tashlamoqda. Bunda *odam + mashina + odam* hamda *odam + matn + mashina + odam* tizimlari asosida ulkan hajmdagi operatsiyalar bajarilmoqda. Bunday operatsiyalarning asosiy vositasi ham, obyekt ham til sanaladi. Kombinator tilshunoslik ikki sohaning birikuvidan yuzaga kelgan soha sifatida, birinchidan, tilning tarkibiy qismi bo'lgan sintagmatika – til birliklarining chiziqli munosabatini, ikkinchidan, til birliklarining "kombinatsiyasini" birikish va tarkib topish jarayonini o'rganadi. Ularni amalga oshirishda muayyan sharoit, ma'lum kommunikativ vazifalarga bo'ysunadi va qaysi ma'lum miqdordagi so'zlardan hosil bo'lishi mumkinligini inobatga oladi [Липпарт 2016: 20-23]. Til birliklarining "kombinatsiyasini" birikishini o'rganish alohida tip lug'atlarining yaratilishiga sabab bo'ldi.

So'zlarning sintagmatik bog'lanishi, kombinator leksikografiyaga bo'lgan qiziqish esa:

- 1) til va nutq hodisalarini chuqurroq tushunish;
- 2) har bir tilning ma'lumotlar bazasini yaratish orqali qiyosiy lingvistikani rivojlantirish;
- 3) tabiiy tillar grammatikasiga optimallashtirish mezonlari asosida yondashish; 4) so'z birikmalari,

metafora, tasviriy ifoda (perifraza)lar, iboralar (frazеologizmlar), paremiologik birliklar (maqol va matallar), hikmatli so'z (aforizmlar)larda aniqlik va obyektivlikni ta'minlash;
5) matnni avtomatik qayta ishlash (avtomatik tarjima, avtomatik tahrir) kabi muammolarni hal qilish;
6) o'quv jarayonini kompyuterlashtirish;
7) o'zbek mashina fondini yaratish orqali tabiiy tillarning jahon axborot uslubini rivojlantirish kabi muammolarni yechishda yordam berdi.

Ma'lumki, **kombinator leksikografiya** - tilshunoslikning nazariy va amaliy qismi, nazariy va amaliy leksikografik masalalarni o'rganish, so'zlarning kombinatorial-sintagmatik xususiyatlarini sharhlash va kombinator tipidagi lug'atlarni yaratish prinsiplarini o'rganadi [Влавацкая 2004: 10]. Ikki tilli kombinator lug'at kataloglarida turli xil tillarning so'zlar taqsimlanishlarni o'rnatishdan tashqari, ona tilida bo'lmagan tilni o'qitish texnologiyasi va metodologiyasini takomillashtirish juda muhimdir. Demak, izohli-kombinator lug'atlarning boshqa izohli lug'atlardan farqli tomonlari quyidagi jihatlari bilan ahamiyatlidir: u yoki bu fikrni bayon etishda tabiiy tilning leksik funksiyasi inobatga olinadi. Matnlarni sintez va analiz qilish, formal tavsifni yagona prinsip asosida namoyon qilishga qaratiladi.

Yaqin vaqtgacha rus tilshunosligida yagona faol, mukammal izohli lug'atning asosiysi D.N.Ushakov va S.I.Ojegovlarning taniqli lug'atlari edi. Sinonimik, frazeologik, so'z yasalishi (uyasi), mafkuraviy, analogik va boshqa tipdagi passiv lug'atlar mutaxassislariga moslashtirib yaratilgan. Shu bilan birga, faol lug'atda hal qilingan, berilgan fikrni ifoda etishning barcha (sinonimik qatorlari, birikish va munosabatga kiritish) vositalari to'liq tizimlashtirilmagan edi.

Jahon tilshunosligida A.K.Jolkovskiy, I.A.Melchuk, Z.M.Shalyapina, Yu.D.Apresyan, Ye.E.Razlogova kabi olimlar tomonidan yaratilgan lug'atlar kombinator leksikografiyaning jiddiy yutug'i sifatida e'tirof etilishga loyiqdir:

Izohli kombinator lug'at - har qanday tilning to'liq tavsifining ajralmas qismi bo'lib, "mazmun – matn" tipidagi lingvistik modellar nazariyasi doirasida amalga oshiriladi. Tabiiy til yaratuvchi sifatida berilgan bir necha ma'noga mos keladigan tabiiy til matnlarda birgina ifodalanuvchi (ya'ni, bir-biriga omonim) va bir necha ifodalanuvchiga mos keladigan birgina ma'no (bir-biriga sinonim) sifatida taqdim etadi.

«Mazmun⇔matn» modelida 4 darajadagi til birliklarining ifodalanishi taqdim etiladi: semantik, sintaktik, morfologik, fonetik-orfografik [Мельчук 1984: 70].

Mazmun⇔matn o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ko'p bosqichli «tarjima» jarayonining semantik axboroti sifatida, ya'ni **SEMANTIK TASAVVUR** – tasvirning bir darajadan boshqasiga o'tishi, tegishli mazmunni yuzaga keltirishga qadar axborotning almashinishi (yoki teskari holat: berilgan matnni «tarjima» jarayoni sifatida, yoki fonetik axborot, ya'ni **FONETIK TASAVVUR** – tasvirning bir darajadan boshqasiga o'tishi, tegishli mazmunni yuzaga keltirishga qadar axborotning almashinishi) nazarda tutiladi. «Mazmun⇔matn» modelida yuqoridagi o'tish jarayonini amalga oshirish, tilning har bir so'zi, sathi, qirralarini va o'ziga xos xususiyatlarini qamrab oladigan yangi tip lug'atlarning yuzaga kelishiga turtki bo'ldi. Aniqroq qilib aytganda, bu tip lug'atda so'zning boshqa so'zlar bilan o'zaro semantik bog'lanishi va sintagmatik munosabati yoritiladi. «Mazmun⇔matn» modelining tarkibiy qismi leksika paradigmatic birlik va sintagmatik aspekt sifatida matnda so'zlarning bog'lanish qonuniyatlariga asoslangan. Mazkur nazariya tabiiy tilning tavsifi sifatida insonning mazmundan matnga («so'zlashish» yoki matn yaratish) va matndan mazmunga («tushunish» yoki matnni qayta tushunish) o'tishini ta'minlaydigan model hisoblanadi, uning o'rtasidagi ⇔ ramziy belgi mazmun bilan matnning chambarchas bog'liqligi va birisiz ikkinchisi mavjud emasligini anglatadi. Nazariya ko'pdarajali tilning modeli sifatida matndagi mazmunni anglash uchun har bir daraja (sath)ning elementlari orqali o'z aksini topadi. Jumladan, fonologik daraja matnning shakliy, dastlabki bosqichi sanalsa, semantik daraja matnning mazmuniy, tashqi morfologik va ichki morfologik daraja, ichki sintaktik va tashqi sintaktik daraja hisoblanadi. Matndagi mazmunni anglash uchun har bir daraja o'z xususiyatidan kelib chiqib mazmunga ta'sir qiladi (M: baland tepalik – baland martaba).

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, tovush, so'z, so'z birikmasi va gap tarkibidagi elementlarning kombinatsiyasi kombinator leksikologiya va leksikografiya sohasining ajralib chiqishiga zamin bo'ldi. Kombinator leksikografiyaning nazariy masalalari jahon tilshunosligida ishlab chiqilgan va bir necha bo'limlardan iborat ekanligi keltirilgan [Влавацкая 2004: 10]. Soha terminologiyasidagi terminlarning turli xilligi va bir-biri bilan bog'liqligi lingvistlar tomonidan muvofiqlikning turli terminda qo'llanilishiga sabab bo'lgan: kombinator, izohli-

kombinator, izohli-muvofiqlashtirish (тольково-сочетаемостный) lug'ati, valentlik va distributsiya lug'ati, distributiv-transformatsion lug'at, so'z birikmasi, semantik va leksik muvofiqlik lug'ati, kollokatsiya lug'ati va boshqalar. Barcha lug'atlarda uchta asosiy kategoriyaga urg'u beriladi: sintaktik, leksik-semantik, leksik-sintaktik. So'z muvofiqligi 7 usul yordamida tavsiflanadi: 1) leksik qatorlar; 2) gap; 3) so'z birikmasi va gap; 4) formulalar; 5) so'zlar bloki; 6) bosh so'zning mavzuviy guruhi; 7) leksik vazifaning vositasi [Задорожнева 2007: 70-74].

Mazkur holatlarni inobatga olib, kombinator leksikografiya tamoyillari ishlab chiqilishi, o'zbek lug'atchiligiga dunyo tilshunosligining eng yangi yutuqlarini zudlik bilan tatbiq etish va amaliyotda bundan samarali foydalanish sira kechiktirib bo'lmaydigan vazifalarimizdan biriga aylanadi.

Izohli – kombinator lug'at – tabiiy tildagi fikrni ifoda etishning barcha vositalarini to'liq tizimlashtirishga imkon beradi. Masalan, *Havoning harorati pasayishi bilan sabzavotlarning hosildorligi kamaydi* misolini tahlil qilib ko'ramiz. Birgina mazkur fikrni bir necha xil variantlarda ifodalash mumkin:

- 1) Havoning sovishi hosildorlikning kamayishiga sabab bo'ldi.
- 2) Hosildorlikning kamayishiga havo haroratining pasayishi sabab bo'ldi.
- 3) Hosildorlik havo harorati sababli kamaydi.
- 4) Sovish hosildorlikning pasayishiga olib keldi.
- 5) Hosildorlikning pasayishi sovish natijasida yuzaga keldi.
- 6) Havo haroratining sovishi natijasida ekinlar kamaydi.

Tabiiy tildagi fikrni sun'iy tilga o'tkazish uchun har bir til birligini izohlash zarur: *sovish* – havo haroratining pasayishi; *hosildorlik* – ekin maydonlaridan olingan mahsulot hajmi kabi. Bunday izoh yetarli emas. Har bir birlik har tomonlama izohlanishi lozim. Shuni ham ta'kidlash lozimki, so'zlarning sinonimik qatorlari ham inobatga olinadi. Haroratning pasayishi hosildorlikning pasayishiga olib keldi, misolidagi so'zlarning leksik-semantik birikuvi va sintaktik aloqadorligi xususiyatlarini ham sinchkovlik bilan tavsiflash kerak.

An'anaviy leksikografiyada ikki tip lug'atlar keng qo'llaniladi: biri lingvistik, ya'ni tushunchalarning izohini, ensiklopedik – ilmiy nuqtayi nazardan narsa, buyum, jarayon, dalil va turli mavhum tushunchalarning izohini tavsiflaydigan lug'at. Ammo so'nggi yigirma yilda tilshunoslik, semiotika, mantiq, texnik va boshqa fanlarning rivojlanishi so'zlarning to'g'ri ishlatilishi ko'p jihatdan til birliklarini guruhlariga bo'lish va u qaysi vazifalarda aks ettirish bilan belgilanishini anglashga olib keladi. Lug'atda «realiylar», «nutqiy etiket» va boshqa madaniy, assotsiativ xususiyatlar ham qamrab olinadi.

Shu bilan birga, izohli kombinator lug'at va boshqa faol lug'atlar orasida muhim farq bor:

Lug'atlar oldiga qo'yiladigan tamoyillar	Izohli lug'at	Kombinator-izohli lug'at
Lug'at unga kiritilgan lug'aviy birliklar va ularga tuzilgan lug'at maqolalaridan tashkil topgan. Lug'aviy birlik deganda, odatda, lug'atga kiritilgan va lug'at maqolasi tuziladigan so'z (bosh so'z) tushuniladi.	+	+
Lug'atga kiritilgan so'zlar alifbo tartibida beriladi va ular, odatda, lug'atning so'zligi deb qaraladi.	+	+
Umumiste'moldagi, chegaralangan leksikaga oid so'zlar kiritiladi, talablarga mos kelmaydigan (javob bermaydigan) so'zlar va so'z shakllari, shuningdek, qisqartmalar (XDP, IIB kabi), atoqli otlar izohlanuvchi birlik (bosh so'z) sifatida lug'atga kiritiladi.	+	-
Bosh so'zlar (mustaqil so'zlar) nol shaklda (bosh shaklda) beriladi. Faqat xalq, qabila, elat nomlari, shuningdek, ayrim terminlar ko'plik shaklida beriladi.	+	-
Lug'at maqolasining etimologik ma'lumotdan keyingi qismi bosh so'zga, uning ma'nosi oldidan	+	+

beriladigan grammatik, uslubiy (sinonim, antonim, omonim, ijobiy/salbiy bo'yoqdorligi) va havola etuvchi qaydlardir. Ular qisqartma shaklida beriladi.		
Bosh so'z o'zi mansub bo'lgan (asosiy) so'z turkumidan boshqa turkumga oid ma'noga ham ega bo'lsa, qaysi ma'nosi (yoki ma'nolari) bilan qaysi so'z turkumiga oidligi qayd etiladi.	+	+
So'zning muayyan shakli shu shaklga xos ma'no va vazifasidan tashqari lug'aviy ma'no ham kasb etgan bo'lsa, har ikki holat grammatik belgi bilan qayd etiladi.	+	+
Bosh so'z bir ma'noli bo'lsa, lug'at maqolasi shu ma'nosiga tuziladi. Ko'p ma'noli bo'lsa, har bir ma'nosi, ma'lum tartibda, to'q qora rangli arab raqami bilan alohida-alohida qayd etiladi (Raqamdan keyin nuqta qo'yilmaydi).	+	+
Izohlanuvchi birliklar (bosh so'z va turg'un iboralar) ma'nosini (ma'nolarini) belgilash va qayd etish lug'at tuzish ishining eng asosiy, lug'at maqolasining doimiy qismlaridan biri hisoblanadi.	+	+
Lug'at maqolasining eng asosiy qismi (komponenti) izohlanuvchi birliklar ma'nosi (ma'nolari)ga beriladigan izohdir.	+	+
Lug'at maqolasining so'nggi komponenti izohlanuvchi birlik ma'nosi izohidan keyin beriladigan illyustrativ misol (misollar)dir.	+	+
Bosh so'zning har biriga illyustratsiya manbasidan olingan chastotasi berilgan.	-	+

Izohli-kombinator lug'at 5 asosiy xususiyati bilan xarakterlanadi: faol (passiv emas); universal (ixtisoslashtirilmagan); ensiklopedik; nazariy; izohlovchi va tizimli [Мельчук 1984:75].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, izohli-kombinator lug'atlar quyidagi maqsadlarda foydalaniladi:

1. Kompyuter dasturlarini yaratish va kompyuter lingvistikasida tabiiy til matnlarini qayta ishlash, sintez va analiz qilish maqsadida zurr axborotlar bilan ta'minlash uchun asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

2. Tabiiy tilning nazariyasi, metatilning semantikasini rivojlantirish, so'zning semantik va sintaktik xususiyatlari, frazeologiyaning tavsiflash kabi masalalarga oydinlik kiritadi.

3. Tillarni o'qitish, nutq madaniyati, leksikografiya sohalarining ravnaqida ko'mak beradi. O'quv lug'atlari, tezaurus va darsliklar yaratilishida manba vazifasini bajaradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий ўзлигимиз ва мустақил давлатчилигимиз тимсоли (Ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганлигининг ўттиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқ) // "Халқ сўзи" газетаси. – Тошкент, 2019. – № 218. – Б. 2. // (Mirziyoyev Sh. M. The symbol of our national identity and independent statehood (speech at the ceremony dedicated to the thirtieth anniversary of the state language status of the Uzbek language) // "Khalk sozi" newspaper. - Tashkent, 2019. – № 218. – P. 2.)
2. Липгарт А.А. Основы лингвопозтики. – М.: URSS, 2016, -С.20-23. // (Lipgart A.A. Fundamentals of linguopoetics. – M.: URSS, 2016, – P. 20-23)
3. Влавацкая М.В. Лексикографическая интерпретация сочетаемости слов (Модель построения русско-английского учебного комбинаторного словаря): Автореф. дисс. канд.фил.наук. – Барнаул, 2004. – С. 24. // (Vlavatskaya M.V. Lexicographic interpretation of the combination of words (Model for constructing a Russian-English educational combinatorial dictionary): Abstract of the thesis. diss. Candidate of Phil.Sci. - Barnaul, 2004. – P. 24.)
4. Мельчук И.А., Жолковский А.К. Толково-комбинаторный словарь современного русского языка. – Вена, 1984. – С.70. // (Melchuk I.A., Zholkovsky A.K. Explanatory-combinatorial dictionary of the modern Russian language. - Vienna, 1984. – P.70.)